



“THE NATIONAL MODEL OF UZBEKISTAN'S MEDIA DIPLOMACY: AN ANALYTICAL STUDY OF THE “DUNYO” NEWS AGENCY”

Muslima Amonqulova

PhD student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: media diplomacy, foreign policy, public diplomacy, mass media, national image, press, global information space, strategic communication.

Received: 27.05.25

Accepted: 29.05.25

Published: 31.05.25

Abstract: This article analyzes the strategic directions of the “Dunyo” News Agency within the framework of Uzbekistan’s contemporary model of media diplomacy. The author explores the agency’s role in advancing the country’s foreign policy interests, shaping its image abroad, and amplifying Uzbekistan’s voice in the global information space. Drawing on current publications, official documents, and academic sources, the study also examines the communication strategy, content policy, and audience outreach effectiveness of the agency.

“O‘ZBEKISTON MEDIA DIPLOMATIYASINING MILLIY MODELI: “DUNYO” AXBOROT AGENTLIGI MISOLIDA TAHLIL”

Muslima Amonqulova

tayanch doktorant

O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: media diplomatiyasi, tashqi siyosat, xalq diplomatiyasi, ommaviy axborot vositalari, mamlakat imiji, matbuot, xalqaro axborot maydoni, strategik kommunikatsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning zamonaviy media diplomatiya modeli doirasida “Dunyo” axborot agentligi faoliyatining strategik yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Muallif agentlikning mamlakatning tashqi siyosiy manfaatlarini ilgari surish, xorijdagi imijini shakllantirish, shuningdek, xalqaro axborot maydonida O‘zbekiston ovozini kuchaytirishdagi o‘rni va ahamiyatini joriy nashrlar, rasmiy hujjatlar va ilmiy manbalar

asosida ochib bergan. Tadqiqotda “Dunyo” agentligining kommunikatsion uslubi, kontent siyosati va maqsadli auditoriyaga ta’sirchanlik darajasi ham o’rganilgan.

«НАЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ МЕДИАДИПЛОМАТИИ УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НА ПРИМЕРЕ АГЕНТСТВА «ДУНЁ»»

Муслима Амонкулова

поддержка докторанта

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: медиадипломатия, внешняя политика, народная дипломатия, средства массовой информации, имидж страны, пресса, глобальное информационное пространство, стратегическая коммуникация.

Аннотация: В данной статье рассматриваются стратегические направления деятельности информационного агентства «Дунё» в контексте современной модели медиадипломатии Узбекистана. Автор анализирует роль агентства в продвижении внешнеполитических интересов страны, формировании положительного имиджа за рубежом, а также усилении присутствия Узбекистана в глобальном информационном пространстве. Исследование основано на текущих публикациях, официальных документах и научной литературе. В статье также изучаются коммуникационные стратегии агентства, политика контента и эффективность охвата целевой аудитории.

Kirish. XXI asrda xalqaro munosabatlar tizimida diplomatiyaning yangi shakllari shakllanmoqda. Ular orasida media diplomatiya (media diplomacy) alohida o’rin tutadi. Media diplomatiya – bu davlatlarning ommaviy axborot vositalari orqali boshqa davlatlardagi jamoatchilik ongiga ta’sir ko’rsatish, o’z siyosatini tushuntirish va xalqaro imijini shakllantirishga qaratilgan faoliyatidir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi, global axborot oqimlarining kuchayishi natijasida media diplomatiya an’anaviy diplomatiya bilan chambarchas bog’liq va ba’zan undan ham samaraliroq vosita sifatida qaralmoqda.

O’zbekiston mustaqillikka erishganidan so’ng o’zining tashqi siyosiy kursini xorijiy jamoatchilikka yetkazish, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar mohiyatini targ’ib qilish va ijobiy imij yaratishga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu yo’nalishda “Dunyo” axborot agentligi muhim kommunikativ platforma sifatida faoliyat yuritib, xorijiy auditoriyaga mamlakat haqidagi rasmiy axborotlarni birinchi manbada taqdim etmoqda.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgacha “Dunyo” agentligining media diplomatiyadagi roli chuqur ilmiy tahlil etilmagan, u orqali O‘zbekiston qanday kommunikatsion strategiyalarni amalga oshirayotgani, xorijiy axborot maydonida qanday pozitsiyani egallayotgani o‘rganilmagan. Shu bois, ushbu maqolada “Dunyo” axborot agentligining media diplomatiya vositasi sifatida tutgan o‘rni, asosiy funksiyalari, kontent siyosati va xalqaro auditoriyaga yo‘naltirilgan kommunikativ strategiyalari tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi – “Dunyo” axborot agentligining media diplomatiya faoliyatini kompleks o‘rganish, uning O‘zbekistonning xalqaro axborot maydonidagi imijini shakllantirishdagi hissasini aniqlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun agentlik tomonidan ishlab chiqilgan xorijiy tillardagi axborot materiallari, ularning mazmuni va ta’sirchanlik darajasi tahlil qilinadi. Shuningdek, boshqa davlatlarning media diplomatiyasi vositalari bilan qiyosiy tahlil orqali “Dunyo” agentligining o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature Review)

Media diplomatiya nazariyasi haqida ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, J. Nayning “yumshoq kuch” (soft power) nazariyasi[1], K. Manxaymning axborot oqimlari to‘g‘risidagi konsepsiyasi va M. Maklyuanning global qishloq haqidagi qarashlari media vositalarining xalqaro siyosatdagi rolini tushunishga zamin yaratadi[2].

O‘zbekiston kontekstida esa A. Toshqulov, Z. Yo‘ldoshev, M. Amonqulova va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar media diplomatiyaning mamlakat tashqi siyosatidagi o‘rni, axborot xavfsizligi, madaniy diplomatiya bilan bog‘liqligi kabi jihatlarni ochib beradi. Shunga qaramay, “Dunyo” agentligining faoliyati alohida ilmiy tahlil obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi[3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Tadqiqotda quyidagi uslublardan foydalanildi:

- **Tarkibiy tahlil (content analysis):** “Dunyo” agentligi tomonidan tarqatilgan materiallar mazmuni tahlil qilindi.
- **Komparativ tahlil:** “Dunyo” agentligining faoliyati boshqa davlatlarning shunga o‘xshash agentliklari bilan qiyoslandi (masalan, Russia Today, CGTN, Anadolu Agency).
- **Intervyu va ochiq manba tahlili:** Agentlik vakillari bilan suhbatlar, rasmiy bayonotlar, xorijiy OAVda “Dunyo” agentligiga asoslangan materiallar tahlil qilindi.

Tadqiqotning maqsadi – “Dunyo” agentligining media diplomatiyadagi real rolini aniqlash va uning samaradorligini baholashdan iborat.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston media diplomatiyasini rivojlantirishda O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi va O‘zbekistonning xorijdagi elchixonalarining ham o‘ziga xos o‘rni bor.

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasining dunyoning qirqqa yaqin davlatlarida faoliyat olib borayotgan elchixonalari tomonidan ana shu mamlakatlardagi mahalliy OAV vakillari uchun matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar tashkil qilib kelinmoqda.

Shuningdek, turli mahalliy tillarda O‘zbekiston hayotiga doir press-revizlar, anonslar, byulletenlar va boshqa shakllardagi axborotlar tayyorlanib, ular muntazam ravishda ommaviy axborot vositalariga tarqatilmoqda. Bulardan tashqari, barcha diplomatik vakolatxonalarning rasmiy saytlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda, tabiiy, mamlakatimiz rahbari olib borayotgan siyosat, islohotlar samarasi va boshqa faoliyat qirralari muntazam tanishtiriladi[4].

Biroq shuni unutmasligimiz kerakki, hozir mavjud imkoniyatlar sharoitida milliy axborot vositalarimiz, shu jumladan tashqi axborot-kommunikatsiya vositalarimiz xalqaro media monopoliyalarga raqobatchi kuchga aylanish darajasida emas. Shu bois ham xalqimiz, mamlakatimiz, davlatimiz va albatta davlatimiz rahbari sha‘niga qarata tarqatiladigan axborotlarning nechog‘li xolis ekanligiga hushyor bo‘lmog‘imiz, zarur vaqtlarda esa mamlakatimizda xorijiy axborotlarga ma‘rifatli axborotlar bilan javob qaytarish tizimi yo‘lga qo‘yilmog‘i kerak bo‘ladi.

Darhaqiqat, mamlakat imijini rivojlantirish jarayonida axborot agentliklari asosiy rollardan birini o‘ynaydi. Chunki ular auditoriya qamrovi va tarqatilayotgan kontentning salmog‘i, ko‘tarilayotgan mavzularning jiddiyligi bilan boshqa milliy OAV platformalaridan farq qiladi. Ularni obrazli qilib aytganda “asosiy axborot fabrikarlari, ya‘ni ishlab chiquvchilari” deb atash mumkin[5].

Xorijda axborot-tushuntirish ishlarini amalga oshirishning kompleks tizimini yaratish, xalqaro media-makonni jamiyatimiz va davlatimiz hayotida ro‘y berayotgan muhim voqealarni xolisona yoritishni ta‘minlaydigan sifatli axborot-tahliliy materiallar bilan boyitish, shuningdek, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, mamlakat rahbariyatining respublika ijobiy imijini ilgari surishga qaratilgan xalqaro tashabbuslari to‘g‘risida xalqaro hamjamiyatni xabardor qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-apreldagi PF-5400-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tuzilmasidagi “Jahon” axborot agentligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining “Dunyo” axborot agentligi va “Dunyo” axborot agentligining tarkibiy bo‘linmasi sifatida Media-markaz tashkil etildi[6].

Agentlik xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalar huzurida o‘zining muxbirlik punktlariga ega bo‘lgan yagona ommaviy axborot vositasi hisoblanadi. “Dunyo” muxbirlari ayni paytda Buyuk Britaniya, Belgiya, Misr, Hindiston, Isroil, Rossiya, AQSh, Fransiya, Turkiya

hamda Yaponiyada faoliyat ko'rsatmoqda. Agentlik eng yirik mahalliy va xalqaro axborot agentliklari, shuningdek, respublikamizning etakchi gazetalari, O'zbekiston teleradiokompaniyasi bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Ko'rsatib o'tilgan vazifalarni ado etish maqsadida "Dunyo" axborot agentligi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq:

- Axborotlarni yig'adi, qayta ishlaydi va tahlil qiladi, barcha turdagi axborot mahsulotlarini mamlakat ichida va xorijda tayyorlaydi hamda tarqatadi;

- Mahalliy va xorijiy OAV hamda axborot agentliklari bilan axborot ayirboshlash haqida yoki tijorat asosida axborot berish (olish) to'g'risidagi bitimlarni imzolaydi;

- Shartnoma asosida xorijiy va mahalliy matbaa nashrlariga, radio, televidenie, axborot agentliklari va boshqa OAV, hukumat va nohukumat muassasalari, jamoat tashkilotlariga axborot taqdim etadi;

"Dunyo" axborot agentligi faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda sifatli axborot, tahliliy va keng qamrovli bosma materiallar, videoroliklar, teleko'rsatuvlar, shuningdek, O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda ro'y berayotgan voqealar joyidan reportajlar tayyorlash hamda ularni tarqatish orqali O'zbekiston Respublikasining ishonchli va mas'uliyatli sherik sifatida xalqaro nufuzini mustahkamlashga ko'maklashish;

- O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari, uning xalqaro tashabbuslari, eksport, investitsiya va turistik salohiyati, turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, davlat dasturlarining hayotga tatbiq etilishi haqida xalqaro hamjamiyatni, shu jumladan xorijiy siyosatchi-ekspertlarni xabardor qilish bo'yicha tizimli ishlarda ishtirok etish;

- mamlakatda amalga oshirilayotgan jadal o'zgarishlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqaro hamjamiyatga o'z vaqtida yetkazish, shuningdek, xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan rasmiy axborot almashish mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadida mahalliy va xorijiy axborot markazlari, media tuzilmalari hamda boshqa tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;

- O'zbekiston Respublikasi delegatsiyalarining xorijga va xorijiy delegatsiyalarning respublikamizga tashriflarini, ularning yakunlari bo'yicha erishilgan kelishuvlarni, shuningdek, kundalik va dolzarb xalqaro masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining rasmiy pozitsiyasini keng va tezkor yoritish;

- respublikaning xorijdagi muassasalari tomonidan chet ellik sheriklar bilan hamkorlikni rivojlantirish, erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, xorijdan investitsiyalar va sayyohlarni jalb qilish, O'zbekiston Respublikasi jismoniy hamda yuridik shaxslarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, xorijiy davlatlardagi vatandoshlar bilan o'zaro

hamkorlik qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida xorijiy va mahalliy jamoatchilikni o'z vaqtida xabardor qilish;

- “Dunyo” axborot agentligining Media-markazi bazasida mahalliy ommaviy axborot vositalari hamda O'zbekistonda doimiy va vaqtincha akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy muxbirlar (jurnalistlar) uchun respublika haqida xolis ma'lumotlarni to'plash va tarqatish imkonini beradigan ish maydonchasini taqdim etish;

- O'zbekiston Respublikasining turli sohalarda bugungi taraqqiyoti va salohiyatini namoyish etadigan foto va media mahsulotlar ishlab chiqarish, axborot byulletenlari, ma'lumotnomalar, kataloglar, risolalar, gazetalar, jurnallar, boshqa bosma hamda kompyuter mahsulotlarini chop etish va xorijda tarqatish.

“Dunyo” axborot agentligining Media-markazi faoliyati ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, Media-markaz quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- mamlakatda va xorijda matbuot anjumanlari, brifinglar hamda axborot uchrashuvlarini tashkil etish;

- xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolaxonalari, konsullik muassasalari, savdo vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillaridan intervyular tashkil etish va olish, keyinchalik tegishli materiallarni milliy hamda xorijiy ommaviy axborot vositalarida tarqatish;

- O'zbekiston Respublikasining tarixi va madaniyati, eksport, investitsiya va turistik salohiyati, mamlakatning tashqi siyosat yo'nalishi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va respublikaning xorijdagi muassasalari faoliyati haqida videoroliklar va tahliliy ko'rsatuvlar tayyorlash hamda tarqatish;

- respublikaning xorijdagi muassasalari bilan, jumladan, vazirlik va idoralar, viloyat hokimliklari rahbarlari ishtirokida teleko'prik va videokonferensiyalar tashkil etish.

Alohida qayd etish kerakki, Prezidentimizning xorijiy mamlakatlarga rasmiy va davlat tashriflari chog'ida ana shu davlat hududida faoliyat olib borayotgan markaziy OAVda O'zbekiston haqida qator materiallar beriladi. Bular, birinchidan, ana shu tashrif uchun informatsion fon hisoblansa (ya'ni, tashrif chog'idagi tantanali kutib olish va qabul marosimlari, rasmiy uchrashuvlar, ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralar, simpoziymlar haqidagi xabarlar, maqolalar, tele-radio reportajlar), ikkinchidan mazkur materiallar orqali mamlakatimiz hayoti bilan bog'liq turli yangiliklar, xususan, erishilayotgan olamshumul yutuqlarimiz to'g'risida batafsil ma'lumotlar tarqatiladi. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonni xorijiy mamlakatlar jamoatchiligiga yaqindan tanishtiradi, qolaversa, davlatimizning xalqaro media makondagi nufuzini oshiradi.



2022 yil O'zbekiston raisligida o'tkazilgan ShHTning Samarqand sammiti xalqaro media makonda keng va sifatli yoritilgani taqsimga loyiq.

Sammit oldidan dunyoning turli davlatlaridan nufuzli Ommaviy axborot vositalari vakillari, yuzlab jurnalistlar Samarqandga tashrif buyurishgan, ularning jonli kuzatuvlari orqali Shanhay hamkorlik tashkilot sammiti doirasidagi voqealar dunyo hamjamiyatiga yetib bormoqda. Sammitning tashkiliy, tayyorgarlik ishlaridan tortib yirik

anjumanda ko'riladigan muhim masalalar ham ularning e'tiboridan chetda qolayotgani yo'q[7].

1-18 sentyabr oralig'ida dunyo OAVining telegram sahifalarida ShHT Samarqand sammitiga doir 51 mingdan ortiq post qoldirildi. Ushbu xabar va maqolalar 340 milliondan ortiq foydalanuvchilarni qamrab olgan. Kun.uz nashrining rasmiy telegram kanali dunyoda ShHT


Samarqand sammitiga doir postlar va ularning qamrovi bo'yicha yetakchi bo'ldi.

15-16 sentyabr kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Shanhay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari sammiti OAVlarning telegramdagi sahifasida yoritilishi bo'yicha raqamlar e'lon qilindi. Unga ko'ra, 2022 yil 1 sentyabrdan 2022 yil 18 sentyabrga qadar 6 ta tilda sammit tadbirlariga doir 51 ming 670 ta post qoldirilgan.

Ushbu postlar dunyo bo'ylab

340 milliondan ortiq telegram foydalanuvchilarini qamrab olgan.

Mamlakatlar bo'yicha solishtirganda, ShHT sammiti bo'yicha eng ko'p telegram post O'zbekiston OAVlari tomonidan qoldirilgan – 26 ming 311 ta post. Jami postlarning qamrovi 144,6 milliondan oshadi.





Keyingi o'rinda Rossiya telegram kanallari – 18 ming 648 ta post, qamrovi 146,2 milliondan ortiq. Keyingi o'rinlarda Eron (4300 ta / 40,7 million), Belarus (1546 ta / 5,2 million), Qozog'iston (613 ta / 2,7 million) va Qirg'iziston (252 ta / 469 ming) OAVlari telegram kanallarida e'lon qilingan postlar turibdi.

Ushbu mamlakatlar OAVlari orasida 1-18 sentyabr holatiga ShHT Samarqand sammitiga doir eng ko'p post Kun.uz internet nashri tomonidan qoldirilgan – 41 ta. Postlarning qamrovi bo'yicha ham nashr mutlaq yetakchi – 14,9 million martadan oshiq ko'rilgan.

Rossiyada esa eng ko'p post RIA Novosti agentligining telegram kanalida qoldirilgan – 10 ta. Ularning qamrovi 5,3 milliondan oshadi.

Eron OAVlarining telegram kanallari orasida Khabarfour birinchi o'rinda – 28 ta post, 4,7 milliondan ortiq qamrov[8].

Biroq respublikamizda o'tkazilgan barcha xalqaro anjumanlar, forumlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, seminarlar, festivallar haqida bunday deb bo'lmaydi.

Xalqaro aloqalar doirasidagi aloqalarni yoritish barobarida mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, aholining turmush darajasini oshirish, hayotning iqtisodiy, gumantar aspektlariga katta e'tibor qaratilishi tufayli O'zbekiston Respublikasining jahon media makonidagi imiji ijobiy tomonga o'zgarib borishi to'liq ta'minlanishi kerak[9].

Umuman olganda O'zbekiston o'zining ijobiy imijini shakllantirish uchun yetarli darajadagi kuch va salohiyatga ega bo'lgan mamlakatdir. Lekin bu boradagi ishlarga mavjud yondashuvni konseptual jihatdan yangi bosqichga olib chiqish lozimligini vaqt ko'rsatmoqda va bu boradagi vazifalar Yangi O'zbekiston strategiyasida aniq-ravshan ochib berilgan.

Ana shu maqsad atrofida birlashgan holda davlat boshqaruvi organlari, turli vazirlik va tashkilotlar, muassasalar Axborot xizmatlarining media makondagi mamlakat imijini shakllantirishga yo'naltirilgan ishlarini qayta ko'rib chiqish, ularni baholash, tegishli xulosalar hamda tajriba asosida yanada faollashtirish joiz.

Avvalambor, ijobiy imijni shakllantirishga tizimli va kompleks yondashuv talab etilmoqda. Bu sohada tushunchalarni umumlashtirish, ustivor yo'nalishlar, maqsad va vazifalarni belgilab

olish, amalga oshirish uslublari va shakllarini ishlab chiqish va ularni so‘zsiz bajarishimiz kerak[10].

Ana shu ishlarni amaliyotga tadbqiq etish uchun nafaqat davlat mablag‘lari, balki mamlakatdagi yetakchi ekspertlar hamda biznes doiralar imkoniyatlaridan ham keng foydalanish mumkin. Bulardan tashqari, fuqarolik jamiyatining barcha qatlamlari “imij siyosati”ni amalga oshirishda faol ishtirok etishlari maqsadga muvofiqdir[11].

Bunda mamlakatda to‘plangan tajriba va o‘rganilgan xorijiy manbalarga asoslangan holda strategiyada belgilangan masalalarga alohida e‘tibor qaratish va ularni samarali amalga oshirish zarur.

“Dunyo” axborot agentligining O‘zbekiston media diplomatiyasining shakllanishida muhim funksional institut sifatida ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Xorijiy auditoriyaga yo‘naltirilgan strategiya

“Dunyo” axborot agentligi 12 dan ortiq xorijiy til (ingliz, rus, fransuz, arab va boshqalar)da axborot tarqatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, bu kontentlar 70% holatda iqtisodiy islohotlar, xalqaro tashabbuslar, tashriflar va xalqaro reytinglardagi o‘rinlarga bag‘ishlangan. Bu O‘zbekistonning “investitsiyalar uchun ochiqlik” imijini yaratish strategiyasiga xizmat qiladi.

2. Media vositasi sifatida “soft power”ni ilgari surish

“Dunyo” agentligi faqat rasmiy bayonotlar emas, balki madaniyat, ta’lim, sayyohlik va inson huquqlari bo‘yicha xabarlarni ham keng yoritadi. Bu orqali O‘zbekistonning ijobiy, tinchlikparvar va ochiq jamiyat imiji ilgari suriladi.

3. Digital va raqamli platformalardan foydalanish darajasi

Agentlik o‘z faoliyatini internet sayti, ijtimoiy tarmoqlar va global axborot platformalari orqali yuritadi. Ammo raqamli diplomatiya vositalaridan foydalanish darajasi ayrim rivojlangan davlatlar tajribasiga nisbatan hanz cheklangan. Shu bois bu borada institutsional islohotlar lozim.

Xulosa va takliflar. O‘zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasida media diplomatiyasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda “Dunyo” axborot agentligi O‘zbekistonning xalqaro axborot makonidagi ovozini kuchaytiruvchi, mamlakat haqidagi ishonchli va ijobiy narrativlarni shakllantiruvchi, shuningdek, xorijiy jamoatchilik bilan samarali aloqa o‘rnatuvchi muhim institut sifatida ajralib turadi. Agentlikning faoliyati nafaqat xabar tarqatish bilan cheklanmay, balki xorijdagi auditoriyalar orasida O‘zbekiston imijini barqaror mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, “Dunyo” agentligi O‘zbekistonning “yumshoq kuch” (soft power) strategiyasini hayotga tatbiq etishda axborot diplomatiyasining operativ va institutsional ko‘rinishiga aylangan. Biroq global media raqobati kuchayayotgan bir sharoitda uning zamonaviy

axborot texnologiyalari, kontent shakllari va xalqaro PR yondashuvlari bilan uyg'unlashuvi zarurati ortib bormoqda.

Takliflar:

Tahliliy va multimedia kontentini kengaytirish: "Dunyo" agentligi faoliyatida infografika, video tahlil, interaktiv maqolalar, animatsiyalar kabi vizual va raqamli kontentlarning ulushini oshirish xorijiy auditoriyalar uchun yanada jozibador bo'ladi.

Xalqaro PR va media hamkorliklarini kuchaytirish: Xorijiy PR kompaniyalari, xalqaro media institutlari va bloggerlar bilan tizimli hamkorlik yo'lga qo'yilishi O'zbekistonning ijobiy imijini strategik auditoriyalarda nishonli ravishda ilgari surish imkonini yaratadi.

Raqamli diplomatiya vositalariga o'tish: Agentlik zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan – podkastlar, jonli efirlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali bevosita muloqot formatlariga faol o'tishi kerak. Bu nafaqat axborot tarqatish, balki interaktiv munosabat va diplomatik ta'sirni oshirishda muhim omil bo'ladi.

Tadqiqot va monitoring markazi tashkil etish: "Dunyo" agentligi huzurida xalqaro media monitoringi, kontent samaradorligini tahlil qilish, O'zbekiston imijining evolyutsiyasini o'rganish bo'yicha tahliliy markaz tashkil etilishi agentlik faoliyatini strategik boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nye, Joseph. Soft Power: The Means to Success in World Politics. PublicAffairs, 2004.
2. McLuhan, Marshall. Understanding Media: The Extensions of Man. MIT Press, 1994.
3. "Dunyo" axborot agentligi rasmiy sayti – www.dunyo.info
4. <https://beruniyalimov.uz/archives/1028> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ИМИЖИ: ХАЛҚАРО МАЙДОНДА У ҚАНДАЙ РИВОЖЛАНАДИ?
5. <https://beruniyalimov.uz/archives/986> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ИМИЖИ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ҚАНДАЙ ЮКСАЛАДИ?
6. <https://lex.uz/uz/docs/-4512289#-4513322> О'ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGINING "DUNYO" AXBOROT AGENTLIGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA
7. <https://kknews.uz/uz/115645.html> ШХТнинг Самарқанд саммити дунё ОАВ нигоҳида
8. <https://kun.uz/news/2022/09/19/51-ming-post-va-340-million-qamrov-shht-samarqand-sammiti-telegram-kanallar-qanday-yoritildi>
9. Magulsim Zhanabekova, Saule Barlybayeva, Karlyga Myssayeva // Development of Mass Media in Kazakhstan. Procedia - Social and Behavioral Sciences 159 (2014) 512 – 516
10. <https://beruniyalimov.uz/archives/907> Media image as an important meaning of Uzbekistan's image formation: theoretical and cognitive aspects
11. The Media in Central Asia: Kazakhstan, Kyrgyzstan, Uzbekistan// an analysis conducted by Internews for USAID